

**BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA ILMIY KUZATISH VA TAJRIBA ORQALI
TABIATNI O'RGANISH****Mirsaidova Muborak Karimovna**

Samardand davlat pedagogika instituti assistenti.

Ashurova Shaxzoda G'ayrat qizi

Samardand davlat pedagogika instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19044651>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinfi o'quvchilarida tabiatni ilmiy kuzatish va tajriba orqali o'rganishning ahamiyati, mazmuni va ta'lim jarayonidagi o'rni yoritilgan.

Shuningdek, kuzatish va tajriba metodlarining o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan hamda boshlang'ich ta'lim jarayonida tabiatni o'rganishda qo'llaniladigan samarali pedagogik usullar, amaliy mashg'ulotlar va tajribalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, o'qituvchining ilmiy kuzatish va tajribalarni tashkil etishdagi pedagogik faoliyati hamda o'quvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kallit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ilmiy kuzatish, tajriba metodi, tabiatni o'rganish, o'quvchilar faoliyati, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik metodlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение изучения природы учащимися начальных классов посредством научного наблюдения и эксперимента. Также анализируется роль методов наблюдения и эксперимента в формировании знаний, умений и навыков у учащихся. В статье освещаются эффективные педагогические методы, применяемые в процессе изучения природы в начальном образовании, а также вопросы развития самостоятельного мышления и исследовательских способностей учащихся через практические занятия и опыты. Кроме того, раскрывается роль учителя в организации научных наблюдений и экспериментов, а также их значение в формировании у учащихся осознанного и бережного отношения к природе.

Ключевые слова: начальное образование, научное наблюдение, метод эксперимента, изучение природы, деятельность учащихся, практические занятия, педагогические методы.

Annotation. This article discusses the importance of studying nature through scientific observation and experiments among primary school students. It analyzes the role of observation and experimental methods in developing students' knowledge, skills, and competencies. The article also highlights effective pedagogical methods used in primary education for teaching nature studies and examines how practical activities and experiments help develop students' independent thinking and research abilities. In addition, the role of the teacher in organizing scientific observations and experiments, as well as their importance in forming students' conscious and responsible attitudes toward nature, is explained.

Key words: primary education, scientific observation, experiment method, studying nature, student activity, practical lessons, pedagogical methods.

KIRISH. Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimini faqat nazariy ma'lumotlar bilan cheklab qolmasdan, balki ularni mustaqil fikrlashga, kuzatish va tahlil qilishga o'rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning tabiat haqidagi dastlabki bilimlarini shakllantirishda ilmiy kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda bolalarda atrof-muhitga qiziqish kuchli bo'lib, ular tabiat hodisalarini ko'rish, kuzatish va amaliy faoliyat orqali o'rganishga intiladilar.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanish olib boruvchi, savol beruvchi va xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida shakllantirish talab etilmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni ilmiy asosda o'rganishga yo'naltirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ilmiy kuzatish va tajriba metodlari orqali o'quvchilar tabiat hodisalarining sabab va oqibatlarini tushunish, ularni tahlil qilish hamda o'z fikrlarini asoslab berish ko'nikmalarini egallaydilar.

Boshlang'ich sinflarda tabiatni o'rganish jarayoni o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi va ekologik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tabiiy hodisalarni kuzatish, oddiy tajribalar o'tkazish, o'simlik va hayvonot olamini o'rganish orqali o'quvchilar tabiat qonuniyatlarini anglay boshlaydilar. Bu esa ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni ilmiy kuzatish va tajriba orqali o'rganishning ahamiyati, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar hamda ularning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy kuzatish va tajribalarni samarali tashkil etishning pedagogik jihatlari ham ko'rib chiqiladi [1].

ASOSIY QISM. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarda tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatni o'rgatishda ilmiy kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim jarayoni bolalarning har tomonlama yetuk, tabiat va jamiyat bilan uyg'un yashay oladigan shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qilishi kerak. Boshlang'ich ta'lim bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biridir. Aynan shu davrda bolalarda hayotiy qarashlar, dunyoqarash, atrof-muhitga bo'lgan munosabat shakllana boshlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat bilan tanishtirish ta'lim-tarbiyaning ajralmas va muhim qismidir. Tabiiy fanlar boshlang'ich ta'limning asosiy fanlaridan biri sifatida bolalarning ilmiy tafakkurini, kuzatuvchanligini, sabr-toqatini, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. [2]. Tabiat hodisalari, hayvonot va o'simlik dunyosi, ob-havo, geografik o'zgarishlar haqidagi bilimlarbola ongida dunyo manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa bolani atrof-muhitganisbatanongli, ehtiyotkor va hurmatli munosabatda bo'lishga undaydi. Shuningdek, ekologik tarbiya ham aynan boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab amalga oshirilishi kerak. O'quvchilarda ertalabki kuzatuvlar, tajribalar, ekskursiyalar orqali tabiatning go'zalligi va uni asrash zarurligi haqida bilim va tushunchalar shakllantiriladi.

Ilmiy kuzatish metodining ahamiyati. Ilmiy kuzatish — bu tabiatdagi hodisa va jarayonlarni maqsadga muvofiq ravishda tizimli ravishda kuzatish, ularni tahlil qilish va muayyan xulosalarga kelish jarayonidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kuzatish metodi eng samarali usullardan biri hisoblanadi, chunki ular ko'proq bevosita ko'rish, sezish va taqqoslash orqali bilimlarni o'zlashtiradilar. Kuzatish jarayonida o'quvchilar tabiatdagi turli hodisalarni, masalan, fasllarning almashinuvi, ob-havoning o'zgarishi, o'simliklarning o'sishi, hayvonlarning yashash tarzi kabi jarayonlarni o'rganadilar [3]. Bunday kuzatishlar o'quvchilarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish bilan birga, ularda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi: diqqatni jamlash va kuzatuvchanlik, taqqoslash va tahlil qilish qobiliyati, mustaqil

fikr yuritish, sabab va oqibat bog'liqligini aniqlash. Masalan, o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda daraxt barglarining yil davomida qanday o'zgarishini kuzatishi mumkin. Bahorda barglarning paydo bo'lishi, yozda ularning yashil rangda bo'lishi, kuzda esa rangining o'zgarishi o'quvchilarga tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Bunday kuzatishlar o'quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tajriba metodining ta'lim jarayonidagi o'rni. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatni o'rgatishda tajriba metodi ham muhim o'rin tutadi. Tajriba orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tajribalar o'quvchilarning qiziqishini oshirib, darslarni yanada jonli va qiziqarli qiladi [4]. Boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan tajribalar oddiy, xavfsiz va o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. Masalan, quyidagi tajribalarni tashkil etish mumkin: suvning bug'lanishini kuzatish, muzning erish jarayonini o'rganish, o'simliklarning o'sishi uchun suv va yorug'likning ahamiyatini aniqlash, tuproq turlarini taqqoslash. Masalan, o'qituvchi ikki xil sharoitda o'simlik yetishtirish tajribasini tashkil qilishi mumkin. Bir o'simlik yorug'lik tushadigan joyga qo'yiladi, ikkinchisi esa qorong'i joyda saqlanadi. Bir necha kundan keyin o'quvchilar o'simliklarning holatini solishtirib, yorug'lik o'simliklarning o'sishi uchun muhim ekanligi haqida xulosa chiqaradilar. Bu tajriba o'quvchilarda ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Tabiatni o'rganishda amaliy faoliyatning ahamiyati. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash muhim hisoblanadi. Shu sababli tabiatni o'rganishda amaliy mashg'ulotlar va tajribalar muhim o'rin egallaydi. Amaliy faoliyat o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularning qiziqishini ham oshiradi. Misol uchun, o'quvchilar urug'ni tuproqqa ekib, uning o'sish jarayonini bir necha hafta davomida kuzatishlari mumkin. Har kuni o'simlikning o'sishi, barglarining paydo bo'lishi yoki rangining o'zgarishini kuzatib, o'z daftarlariga qayd etib boradilar. Bu jarayon o'quvchilarda sabr-toqat, mas'uliyat va kuzatuvchanlik kabi sifatlarni rivojlantiradi. Shuningdek, maktab hududida kichik tabiat burchagini tashkil etish ham o'quvchilar uchun foydali hisoblanadi. Bu yerda o'quvchilar turli o'simliklarni parvarish qilish, ularning o'sishini kuzatish va tabiat haqidagi bilimlarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar [5].

O'qituvchining pedagogik faoliyati. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ilmiy kuzatish va tajribalarni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishini hisobga olgan holda darslarni tashkil etishi, ularni faol ishtirok etishga undashi lozim. O'qituvchi quyidagi pedagogik vazifalarni amalga oshiradi: kuzatish va tajribalarni rejalashtirish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish, savollar orqali o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirish, kuzatish natijalarini tahlil qilishga yo'naltirish, o'quvchilarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik hissini shakllantirish. Shuningdek, tabiat qo'ynida o'tkaziladigan ekskursiyalar ham o'quvchilarning bilimini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, o'quvchilar maktab bog'ida o'simliklarni kuzatishi, qushlar va hasharotlar hayoti bilan tanishishi mumkin. Bunday faoliyatlar o'quvchilarning tabiatga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi [6].

Kuzatish va tajriba metodlarining tarbiyaviy ahamiyati. Tabiatni kuzatish va tajribalar orqali o'rganish nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Bu jarayon o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar tabiat boyliklarini asrash, o'simlik va hayvonot olamiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurligini tushunib yetadilar. Shuningdek, kuzatish va tajribalar o'quvchilarda mas'uliyat, mehnatsevarlik va tabiatga mehr kabi ijobiy fazilatlarini rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ekologik ongli shaxslarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega [7].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat bilan tanishtirish – bu nafaqat bilimberish, balki, ularning qalbida tabiatga mehr, mas'uliyat, e'tibor va hurmat uyg'otish jarayonidir.

Metodik yondashuvlarning xilma-xilligi, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning uyg'unligi, oilaviy va jamoaviy ishtirokning ta'minlanishi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tabiatni asrashga da'vat etuvchi, ongli, bilimli avlodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda [8]. Shuning uchun ham har bir o'qituvchi bolalarning tabiatga nisbatan e'tiborini, qiziqishini, kuzatuvchanligini va faol ishtirokini rag'batlantirishi kerak. Bu orqali biz nafaqat bilimli, balki yuragida tabiatga mehr bor insonlarni voyaga yetkazamiz.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatni ilmiy kuzatish va tajriba orqali o'rganish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu metodlar o'quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiatni o'rgatishda ilmiy kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu metodlar orqali o'quvchilar tabiat hodisalarini nafaqat nazariy jihatdan o'rganadilar, balki ularni amaliy faoliyat orqali anglab yetadilar. Natijada o'quvchilarda tabiat haqidagi bilimlar yanada mustahkam va chuqur shakllanadi.

Ilmiy kuzatish o'quvchilarda diqqat, kuzatuvchanlik va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tabiatdagi o'zgarishlarni muntazam kuzatish orqali o'quvchilar sabab va oqibat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishni o'rganadilar. Bu esa ularning ilmiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kuzatish jarayonida o'quvchilar tabiat hodisalarini o'z ko'zi bilan ko'rib, ularni mustaqil ravishda tahlil qilishga harakat qiladilar.

Tajriba metodi esa o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratadi. Tajribalar orqali o'quvchilar turli tabiiy jarayonlarning qanday sodir bo'lishini tushunib yetadilar. Bunday jarayonlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularning faolligini oshiradi va dars jarayonini yanada mazmunli qiladi.

Tajriba asosida o'rganilgan bilimlar esa o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'xtayev A., Norboyeva M. "Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi". – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2021.
2. Xudoyberdiyev N., Qodirova D. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi". – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
3. Raximov S., Yusupova M. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi va pedagogik texnologiyalar". – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2023.
5. Turg'unov S.T. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etish". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Abduqodirov A.A., Ishmuhamedov R. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar". – Toshkent: Ziyo nashriyoti, 2021.

7. Karimova N., Yo'ldosheva D. "Boshlang'ich sinflarda kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanish". – Toshkent: Ilm Ziya, 2022.
8. Saidahmedov N., Usmonov S. "Boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.